

## TO'PGULLAR ULARNING ASOSIY MORFOLOGIK BELGILARIGA KO'RA TIPLARGA BO'LINISHI

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Biologiya yo'nalishi talabasi

**Nabijonova Gulasal Ne'matjon qizi**

[talibjanovamunisa@gmail.com](mailto:talibjanovamunisa@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada to'pgullar, ularning asosiy morfologik belgilariga ko'ra tiplarga bo'linishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. To'pgullar tuzilishi jihatidan o'simliklarning vegetativ qismidan bir qancha farq qiladi. To'pgullar kurtaklarning xarakteriga kelib yozila boshlaganidan keyin yanada yaxshiroq ko'rinishga boshlaydi. Ko'pchilik novdalarning to'pgullarini apikal meristemasi gulga aylanadi. Murakkab to'pgullarning asosiy o'qida oddiy to'pgullar joylashib ularni partsiallar deb ataladi.

**Kalit so'zlar:** to'pgul, oddiy to'pgul, murakkab to'pgul, savatcha, ginetsey, urug'chi, meva barg.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения о классификации соцветий по основным морфологическим признакам. По строению соцветия являются вегетативной частью растений. Цветы начинают выглядеть лучше после того, как бутоны начинают распускаться. Верхушечная меристема соцветия большинства ветвей превращается в цветок. Простые соцветия располагаются на главной оси сложных соцветий и называются парциальными.

**Ключевые слова:** цветок, простой цветок, сложный цветок, корзинка, гинецей, семя, плодовый лист.

### ANNOTATION

This article provides information on the classification of inflorescences according to their main morphological characteristics. In terms of structure, inflorescences are the vegetative part of plants. The flowers start to look better after the buds begin to move. The apical meristem of the inflorescence of most branches turns into a flower. Simple inflorescences are located on the main axis of complex inflorescences, and they are called partials.

**Key words:** flower, simple flower, complex flower, basket, gynoecium, seed, fruit leaf.

**To'pgul** (Inflorescentia) — o'simlikdagi bir yillik novdaning gul chiqaradigan qismi. To'pgullar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy to'pgul botrik (ratsemoz, yongulli) va (simoz tepagulli) to'pgullarga bo'linadi. Botrik to'pgul monopodial shoxlanishi va gullarining markazga qarab (pastdan yuqoriga) ochilishi bn, simoz to'pgul esa uchki gulining mavjudligi, simpodial shoxlanishi va gullarining markazdan qochib (yuqoridan asosiga qarab) ochilishi bn tavsiflanadi. Oddiy to'pgullarda gullar asosiy gulpoya (birinchi tartibli gulpoya) da yoki ikkinchi tartibli gulpoyani tashkil qiluvchi gulbandlarda, murakkab to'pgulda esa gullar uchinchi va undan ham yuqori tartibli gulpoyalarda joylashadi. Oddiy botrik to'pgullar: oddiy shingil to'pgul, asosiy gulpoyaga gullar uzun gulbandlari bn joylashgan (karam, rediska, achambiti); oddiy boshqoq to'pgul uzun gulpoyaga mayda bandsiz gullar bn o'rnashgan (zubtutum); kallaksimon to'pgul kalta, yo'gon gulpoyaga gulbandsiz gullar bn zich joylashgan (to'ng'iztaroq, beda, sebarga); oddiy soyabon to'pgul asosiy gulpoyadan uzun gulbandli gullar soyabon simlari kabi har tomonga tarqalgan bo'ladi (navro'zgul, piyoz, olcha va boshqalar); oddiy savatcha to'pgulda mayda gullar gulpoyaning yo'g'onlashgan uchiga joylashadi (moychechak, kungaboqar, bo'tako'z). Oddiy simoz to'pgulga oddiy mono, di va pleyoxaziylar mansub bo'lib, to'pgulning uchki gulidan pastroqda bitta (ayiqtovonda), ikkita (yulduzchada) yoki bir nechta (sutlamada) yon gullar rivojlanib, ular kechroq navbat bn ochiladi. Murakkab to'pgullar esa bir xil yoki bir necha xil oddiy to'pgullardan hosil bo'ladi. Masalan, ikki- uchta guldan hosil bo'lgan bug'doy boshqochalarining bir nechtasi asosiy gulpoyaga birikib, bug'doyning murakkab boshog'ini, ko'pchilik soyabongullilarning bir necha oddiy soyabonlari murakkab soyabonni tashkil etadi. To'pgulning tuzilishi sistematikada muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir-biriga yaqin o'simliklarning evolyutsiya yo'nalishlari haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Urug'chi (Ginetsey). Ginetsey deb bir yoki bir nechta urug'chilarni hosil qilgan meva barglar (karpella) yig'indisiga aytiladi. Meva barglar bu kelib chiqishi barg bo'lgan tuzilmalar hisoblanadi. Urug'chi yopiq urug'li o'simliklar gulining muhim organi hisoblanib, u gulning o'rtasida joylashgan. O'simlik turlariga qarab gulda bir yoki bir necha shakli o'zgargan barglardan hosil bo'lib, ularni meva barglar deyiladi. Demak urug'chi bargning shakl o'zgarishdan kelib chiqqan. Guldagi meva barglarning yig'indisi ginetsey deb ataladi. Urug'chi faqat yopiq urug'li o'simliklar uchun xosdir.

Uning kengaygan ostki qismi tuguncha, o'rta qismi toraygan ustuncha va uchki qismi tumshuqchalardan iborat. Tugunchadagi uyalar soni urug'chini hosil qilgan meva barglar soniga tengdir. Urug'chilar tuzilishiga ko'ra, ikki xil bo'ladi. Bitta meva bargdan tashkil topgan urug'chi - oddiy urug'chi, ko'p sonli meva bargdan iborat bo'lgan urug'chi - murakkab urug'chi deb ataladi. Oddiy urug'chi odatda bir uyli, murakkab urug'chi esa asosan ko'p uyli bo'ladi. Ba'zan meva bargning o'sish xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda bir uyli ham bo'lishi mumkin. To'pgullar tuzilishi jihatidan o'simliklarning vegetativ qismidan bir qancha farq qiladi. To'pgullar kurtaklarning xarakterga kelib yozila boshlaganidan keyin yanada yaxshiroq ko'rinishga boshlaydi. Ko'pchilik novdalarning to'pgullarini apikal meristemasi gulga aylanadi. Murakkab to'pgullarning asosiy o'qida oddiy to'pgullar joylashib ularni partsiallar deb ataladi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zaxarov V.B., Mamatov S., *Общая биология*. М., 2002;
2. Chyen-sov Yu.S., *Общая цитология*, М., 1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., *Биология*, т. 1-3. М., 1990;
4. Mavlonov O., *Биология (Ma'lumotnoma)*, Т., 2003.
5. N.Grin va boshq. "Биология". 1990y.
6. A.S.Troshin va boshq. ". 1980y.
7. T.B.Boyqobilov, X.Ikromov "Ситология."1980y.
8. Sattiboev M.S. "O'simlik hujayrasi".Т. 1990y.

**Research Science and  
Innovation House**